O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.FM.01.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

NURULLAEV JUSIPBAY ABDIUALIEVICH

SOBOLEV TIPIDAGI BA’ZI BIR TENGLAMALARNI YECHISHNING YUQORI ANIQLIKDAGI AYIRMALI SXEMALARI

01.01.03-Hisoblash matematikasi va diskret matematika

FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

TOSHKENT – 2024

UDK 519.6

Fizika-matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по физико-математическим наукам

Content of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD) on physical and mathematical sciences

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.FM.01.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

NURULLAEV JUSIPBAY ABDIUALIEVICH

SOBOLEV TIPIDAGI BA’ZI BIR TENGLAMALARNI YECHISHNING YUQORI ANIQLIKDAGI AYIRMALI SXEMALARI

01.01.03-Hisoblash matematikasi va diskret matematika

FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

TOSHKENT – 2024

Fizika-matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.1.PhD/FM998 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya O‘zbekiston Milliy universitetida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (http://ik-fizmat.nuu.uz/) va «Ziyonet» Axborot ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Utebaev Dauletbay** fizika-matematika fanlari doktori, dotsent
Rasmiy opponentlar:	**Shadimetov Xolmatvay Maxkambayevich** fizika-matematika fanlari doktori, professor
	Xudoyberganov Mirzoali O‘razalievich fizika-matematika fanlari doktori, professor
Yetakchi tashkilot:	**O‘zR FA V.I.Romanovskiy nomidagi Matematika instituti**

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston Milliy universiteti huzuridagi Dsc.03/30.12.2019.FM.01.02 raqamli Ilmiy kengashning 2024 yil “30” aprel soat 14^{00} dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 100174, Toshkent sh., Olmazor tumani, Universitet ko‘chasi, 4-uy. Tel.: (+99871) 227-12-24, faks: (+99871) 246-53-21, 246-02-24, e-mail: nauka@nuu.uz).

Dissertatsiya bilan O‘zbekiston Milliy universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (31 raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100174, Toshkent sh., Olmazor tumani, Universitet ko‘chasi, 4-uy. Tel.: (99871) 246-02-24).

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil “16” aprel kuni tarqatildi.
(2024 yil “19” fevral dagi 1-raqamli reestr bayonnomasi).

M.M. Aripov
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash raisi, f.-m.f.d., professor

Z.R. Raxmonov
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash ilmiy kotibi, f.-m.f.d.

R.D. Aloyev
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy
seminar raisi, f.-m.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) disertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon miqyosida olib borilayotgan ko‘plab ilmiy va amaliy tadqiqotlar tutash muhitlar mexanikasining nostatsionar jarayonlarini o‘rganishga bag‘ishlangan. Ayniqsa, ichki to‘lqinlar, suyuqliklar va gazlar harakati, plazmadagi elektromagnit va ion-akustik to‘lqinlarning tarqalishi nazariyasidan noklassik yuqori tartibli xususiy hosilali differensial tenglamalar uchun boshlang‘ich-chegaraviy masalalarni yechishga alohida e’tibor berilmoqda. Bunda, yuqori tartibli tenglamalar (Sobolev tipidagi tenglamalar) uchun murakkab nostatsionar masalalar hamda ularni yechish usullari hisoblash matematikasi va matematik modellashtirish sohalarining tadqiqot obyekti hisoblanadi. Shu sababli, differensial tenglamalarni yechishning silliqligi uchun tabiiy talablar ostida ushbu tenglamalar uchun aniqligi yuqori bo‘lgan sonli usullarni qurish, ularning turg‘unlik shartlarini va yaqinlashish baholarini olish muhim vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda.

Hozirgi kunda dunyoda matematik fizikaning chiziqli va nochiziqli tenglamalari, shu jumladan Sobolev tipidagi noklassik nostatsionar tenglamalar uchun aniqlikni oshirishning sonli usullarini qurish va o‘rganishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Ushbu tenglamalar Koshi-Kovalevskiy shartlarini qanotlantirmaydi va nostatsionar Sobolev tipidagi tenglamalarning yechimlari dispersion xususiyatga ega bo’lib, ularning analitik yechimlarini topish murakkab sanaladi. Shu nuqtai nazardan Sobolev tipidagi noklassik nostatsionar tenglamalar uchun qo’yilgan boshlang’ich va chegaraviy masalalarni sonli yechishning yuqori aniqlikdagi usullarini ishlab chiqish talab etiladi. Shu sababli Sobolev tipidagi nostatsionar tenglama uchun boshlang‘ich-chegaraviy masalalarni yechish, aniqlikni oshirishning turg‘un sonli usullarini va ularning tejamkor algoritmlarini ishlab chiqish hamda ularning samarodarligini aniqlash maqsadli ilmiy tadqiqotlardan hisoblanadi.

Mamlakatimizda amaliy va innovatsion tadqiqotlar asosi bo‘lgan fundamental fan yo‘nalishlariga alohida e’tibor qaratilmoqda. Tutash muhitlar mexanikasi, okeanologiya va atmosfera fizikasi kabi sohalardagi amaliy masalalarni yechishda sonli usullarni ishlab chiqish dolzarb hisoblanadi. Hozirgi vaqtda yuqori aniqlikdagi ayirmali sxemalarni qurish va o‘rganishga bag‘ishlangan bir qator ilmiy tadqiqotlarda ushbu yo‘nalishda, ya’ni, sonli yechimning tejamkor algoritmlarini qurishda sezilarli natijalarga erishildi. “Funksional analiz, algebra, differensial tenglamalar, matematik fizika, matematik modellashtirish, hisoblash matematikasi va diskret matematika, ehtimollar nazariyasi va matematik statistika” ustuvor yo‘nalishlar bo‘yicha xalqaro standartlar darajasidagi ilmiy izlanishlar olib borish O‘zR FA V.I.Romanovskiy nomidagi Matematika instituti faoliyatining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi[1]. Qaror ijrosini ta’minlashda Sobolev tipidagi yuqori tartibli vaqt xosilasiga nisbatan yechilmagan nostatsionar tenglamalar

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 7 maydagi “Matematika sohasidagi ta’lim sifatini oshirish va ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4708-son qarori.

uchun yuqori aniqlikdagi sonli usullarni qurish va tadqiq qilish muhim ahamiyatga ega.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” gi farmoni, 2020-yil 7-maydagi PQ-4708-son “Matematika sohasidagi ta’lim sifatini oshirish va ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori, 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmoni, 2019-yil 27-apreldagi PQ-3682-son “Innovatsion g‘oyalar, texnologiyalar va loyihalarni amaliyotga joriy qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori va 2021-yil 1-apreldagi PF-6198-son “Ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirish bo‘yicha davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish to‘g‘risida”gi farmonlari, hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining IV. “Matematika, mexanika va informatika” ustuvor yo‘nalishiga mos keladi.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. A.N. Tixonov, A.A. Samarskiy, G.I. Marchuk, N.N. Yanenko, S.K. Godunov, R. Richtmayer , O.A. Ladyjenskova, Yu.I. Shokin, V.L. Makarov, R.D. Lazarov, A.V. Gulin, N.N. Kalitkin, M.N. Moskalkov, P.N. Vabishchevich, M.M. Aripov, R.D. Aloev, M.O. Xudoyberganov va boshqalarning tadqiqotlari matematik fizika masalalarini yechishning sonli usullarini ishlab chiqishga fundamental hissa qo‘shdi. Yuqori tartibli xususiy hosilali differensial tenglamalarni o‘rganish S.L. Sobolevning ishidan boshlangan. Ular geofizika, okeanologiya, atmosfera fizikasi, plazma fizikasi va magnitlangan strukturalarning kuchli dispersion muhitda to‘lqinlarning tarqalishi bilan bog‘liq va boshqa ko‘plab muammolarni yechishda paydo bo‘ladi. Ushbu turdagi masalalarni yechishning analitik usullari R.A. Aleksandryan, S.A. Galperin, R.T. Denchev, T.D. Dliuaraeva, S.A. Gabov, A.G. Sveshnikov, M.O. Korpusov, Yu.D. Pletner, A.I. Kojanov, G.A. Sviridyuk, S.G. Rossby, M.I. Lighthill, P.I. Chen va boshqalarning ishlarida o‘rganilgan bo‘lib, unda chiziqli va nochiziqli xususiy hosilali differensial tenglamalar uchun boshlang‘ich-chegaraviy masalalarning global va lokal yechimlarini topish usullari keltirilgan. Bunday masalalarni yechishning sonli usullarini M.M. Moskalkov, N.N. Kalitkin, A.B. Al’shin, E.A. Al’shina, A.A. Zamishlyaeva, M.M. Aripov, D. Utebaev va boshqalar tarafidan o‘rganilgan. Yuqori tartibli nostatsionar tenglamalar uchun aniqlikni oshirishning sonli usullari M.M. Moskalkov, M.M. Aripov, D. Utebaev ishlarida ko‘rilgan va o‘rganilgan. Ularning ishlarida, asosan, chekli ayirmalar usuli va chekli elementlar usuliga asoslangan bo‘lib, yuqori aniqlikdagi ayirmali sxemalarning aniqlik baholari olingan. Xuddi shunday tadqiqotlar A.A.Zamyshlyaevaning ishlarida ham o‘rganilgan, bu yerda takomillashtirilgan

Galerkin usuli va Rits usuliga asoslangan sonli yechim uchun algoritm ishlab chiqilgan.

Vaqt hosilasi bo‘yicha yechilmagan tenglamalarning sonli usullari N.N. Kalitkin, A.B. Al’shin, E.A. Al’shina ishlarida ko‘rib chiqilgan, bu yerda nostatsionar yuqori tartibli tenglamalar ikkita tenglamaga almashtirish yordamida yechiladi (birida fazoviy o‘zgaruvchilarga nisbatan differensiallash mavjud, ikkinchisi esa faqat vaqtga nisbatan) va keyin bu tenglamalar kvazitengo‘lchamli to‘rlarda chekli ayirmalar usuli bilan yechiladi. Bunda asosan, ikkinchi tartibli aniqlikga ega sxemalar olingan. V. Vuchev, N. Kolkovskning ishlari Sobolev tipidagi tenglamalarni yechishning sonli usullariga bag‘ishlangan bo‘lib, bu yerda vaqt va fazo o‘zgaruvchilari bo‘yicha birinchi va ikkinchi tartibli aniqlikdagi ayirmali sxemalar qurilgan va o‘rganilgan.

Ma‘lumki, yuqori tartibli vaqt hosilasiga nisbatan yechilmagan nostatsionar tenglamalarni faqat fazo o‘zgaruvchilari bo‘yicha approksimatsiyalash orqali ko‘p o‘lchamli oddiy differensial tenglamalar sistemasi olinadi. K. Husayn, F. Ismoil ishlarida umumiy to‘rtinchi tartibli xususiy hosilali differensial tenglama uchun Runge-Kutta usullariga asoslanib, sonli usullar qurilgan va o‘rganilgan, bu yerda fazoviy o‘zgaruvchilar chekli ayirmalar usuli bilan approksimatsiyalangan. O.A. Tayvo, O.M. Ogunlaran asarlarida τ-usuli asosida, J. Talvar, R. Mohanti, K.K. Singx, D.I. Singx asarlarida esa chekli ayirmalar usuli asosida to‘rtinchi tartibli oddiy differensial tenglamalar yechimlari o‘rganilgan va ikkinchi tartibli aniqlik baholari olingan, bundan tashqari, yuqori darajadagi aniqlikni olish usullari ko‘rsatilgan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti M. Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq “Amaliy matematika masalalarini yechish algoritmlari va dasturiy ta‘minoti” doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi. Sobolev tipidagi yuqori tartibli vaqt xosilasiga nisbatan yechilmagan nostatsionar tenglamalar uchun yuqori aniqlikdagi ayirmali sxemalarini qurish, ularning turg‘unlik shartlarini topish va yaqinlashish hamda aniqlik baholarini olishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

vaqt hosilasiga nisbatan yechilmagan to‘rtinchi tartibli Sobolev tipidagi tenglamalarni sonli yechish uchun chekli elementlar usuli asosida yuqori aniqlikga ega ko‘p parametrli ayirmali sxemalarni ishlab chiqish;

to‘rtinchi tartibli oddiy differensial tenglamalar sistemasi uchun chekli elementlar usuli asosida yuqori aniqlikdagi ko‘p parametrli ayirmli sxemalarni ishlab chiqish;

vaqt hosilasiga nisbatan yechilmagan oltinchi tartibli Sobolev tipidagi tenglamalarni sonli yechish uchun chekli elementlar usuli asosida yuqori aniqlikga ega ko‘p parametrli ayirmali sxemalarni ishlab chiqish;

differensial masala yechimining silliqligiga minimal talablarda aniqlik baholarini olish;

vaqt hosilasi bo‘yicha yechilmagan Sobolev tipidagi nostatsionar tenglamalar uchun ba’zi boshlang‘ich-chegaraviy masalalarni sonli modellashtirish uchun yangi qurilgan yuqori aniqlikga ega ko‘p parametrli ayirmali sxemalarini qo‘llash.

Tadqiqotning obyekti vaqt hosilasiga nisbatan yechilmagan to‘rtinchi va oltinchi tartibli Sobolev tipidagi nostatsionar tenglamalar uchun boshlang‘ich-chegaraviy masalalar.

Tadqiqotning predmeti vaqt hosilasiga nisbatan yechilmagan Sobolev tipidagi tenglamalar uchun boshlang‘ich-chegaraviy masalalarni yechishning yuqori aniqlikdagi sonli usullarini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiya ishida hisoblash matematikasi, sonli modellashtirish, algebra, funksional analiz, differensial tenglamalar nazariyasi, shuningdek, algoritmlash texnologiyasi usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

magnitlanmagan plazmadagi ion-akustik to‘lqinlar, magnitlardagi spin to‘lqinlar, yengil tekislik tipidagi magnitlardagi spin to‘lqinlari, ikki haroratli plazma tenglamalari ko‘p parametrli yuqori aniqlikdagi chekli elementlar usuli asosida yechilgan, approksimatsiya xatoligi, turg‘unlik shartlari va aniqlik baholari olingan;

chekli elementlar usuli asosida to‘rtinchi tartibli oddiy differensial tenglamalar sistemasi uchun to‘rtinchi tartibli aniqlikdagi yangi ko‘p parametrli ayirmali sxemalari qurilgan, approksimatsiya xatoligi, turg‘unlik shartlari olingan va aniqlik teoremalari isbotlangan;

siqiladigan stratifikatsiyalangan aylanuvchi suyuqlik dinamikasi tenglamasi va magnitlangan plazmadagi ion-akustik to‘lqinlar tenglamalari uchun qo’yilgan boshlang‘ich-chegaraviy masalalarni sonli yechishda yuqori aniqlikdagi ayirmali sxemalar qurilgan hamda turg‘unlik shartlari olingan va yaqinlashish tezligi baholangan;

to‘rtinchi va oltinchi tartibli xususiy hosilali differensial tenglamalar uchun qo‘yilgan boshlang‘ich-chegaraviy masalalarning analitik yechimi va silliqligiga minimal talablarda ayirmali sxemalar orqali olingan sonli yechim o‘rtasidagi aniqlik baholari keltirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

chekli elementlar usuli asosida ba’zi yuqori tartibli Sobolev tipidagi tenglamalarni sonli yechish uchun yuqori darajali yaqinlashishning yangi yarim aniq ko‘p parametrli ayirmali sxemalari qurilgan;

ikki haroratli plazma va magnitlangan plazmadagi ion-akustik to‘lqinlar tenglamalari uchun qo’yilgan boshlang‘ich-chegaraviy masalalar sonli yechilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Dissertatsiya ishida olingan natijalar tegishli teoremalarni qat‘iy isbotlash, shuningdek, hisoblash eksperimenti asosida nazariy xulosalarni tasdiqlash bilan asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Dissertatsiyada olingan natijalarning ilmiy ahamiyati to‘rtinchi tartibli tenglamalar sistemasi uchun abstrakt Koshi masalasini yechish uchun chekli elementlar usulining yangi yuqori aniqlikdagi koʻp parametrli ayirmali sxemalarini qurish va tadqiq qilish, aniq amaliy masalalarning yechimini asoslash bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundan iboratki, chekli elementlar usuli asosida qurilgan yuqori aniqlikdagi koʻp parametrli ayirmali sxemalar, shuningdek, algoritmlar va dasturlar toʻrtinchi va oltinchi tartibli har xil Sobolev tipidagi tenglamalar uchun, vaqt hosilasiga nisbatan yechilmagan boshlangʻish-chegaraviy masalaning sonli yechimlarini topish boʻyicha samarali hisoblash tajribalarini oʻtkazishga xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Vaqt hosilasiga nisbatan yechilmagan yuqori tartibli Sobolev tipidagi tenglamalar uchun chekli elementlar usuli asosida qurilgan yuqori aniqlikdagi koʻp parametrli ayirmali sxemalarni qurish boʻyicha olingan natijalar quyidagi ilmiy loyihalarda amalga oshirilgan:

vaqt hosilasiga nisbatan Sobolev tipidagi yuqori tartibli tenglamalarni sonli yechish usullaridan OT-F2-77-“Modellashtirish asosida ichki nuqsonlarni hisobga olgan holda yarimoʻtkazgichli asboblarning ishonchligini bashorat qilishning takomillashtirish usuli” grant loyihasida turli defektlarga ega yarimoʻtkazgich strukturalardagi jarayonlar haqida yangi ma’lumotlar olishda va ularning elektrofizik hamda optik xususiyatlarini aniqlashda foydalanilgan (Qoraqalpoq davlat universitetining 2023 yil 7 avgustdagi 01-22-04/276-sonli ma’lumotnomasi). Ilmiy natijalarning qoʻllanilishi yarimoʻtkazgichlar fizikasi masalalarida defektlarning paydo boʻlishi sabablarini aniqlash va muayyan turgʻunlikni ta’minlaydigan yarimoʻtkazgich priborlarni yaratishdagi usullarni yangilash imkonini bergan;

Sobolev tipidagi tenglamalar uchun qurilgan yuqori aniqlikdagi ayirmali sxemalardan AL-392103042-“Janubiy Orolboʻyi choʻl zonalarida hudud iqlimining isishiga olib keluvchi ekologik-meteorologik jarayonlarni modellashtirish” grant loyihasida qizdirilgan yuzadan mikrozarrachalarning konvektiv koʻtarilishining sonli modelini qurishda foydalanilgan (Qoraqalpogʻiston Tabiatshunoslik ilmiy-tadqiqot institutining 2023 yil 8 avgustdagi 17.01/303-sonli ma’lumotnomasi). Ilmiy natijalarning qoʻllanilishi qizdirilgan yuzadan mikrozarrachalarning konvektiv koʻtarilishi modelini va gaz muhiti bilan konvektiv oqimda harakatlanuvchi sferik mikrozarrachalarning molekulyar issiqlik uzatish modelini sonli yeshish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiya ishining natijalari 9 ta ilmiy-amaliy anjumanlarda, jumladan, 7 ta xalqaro va 2 ta respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjumanlarda ma’ruza qilingan va muhokamadan oʻtgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi boʻyicha jami 18 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, Oʻzbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 9 ta maqola, shu jumladan 4 tasi xorijiy ilmiy jurnallarda chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 112 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi asoslangan, tadqiqotning O‘zbekiston Respublikasi fan va texnikasi rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga muvofiqligi ko‘rsatilgan, dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy-ilmiy tadqiqotlar sharhi va muammoning o‘rganilganlik darajasi keltirilgan, tadqiqot maqsadi va vazifalari shakllantirilgan, tadqiqot ob’ekti va predmeti tafsiflangan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon etilgan. Olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, chop etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi haqida ma’lumotlar berilgan.

“To‘rtinchi tartibli Sobolev tipidagi tenglamalar uchun chekli elementlar usulining ayirmali sxemalarining aniqlik baholari” deb nomlangan **birinchi bobda** vaqt hosilasiga nisbatan yechilmagan to‘rtinchi tartibli Sobolev tipidagi tenglamalar uchun boshlang‘ich-chegaraviy masalalarni ko‘rib chiqilgan. Ushbu tenglamalarda birinchi navbatda fazoviy o‘zgaruvchilarni approksimatsiyalaymiz va vaqt o‘zgaruvchisi differensial shaklda saqlanadi. Natijada, ikkinchi tartibli yuqori o‘lchamli oddiy differensial tenglamalar sistemasini olamiz, keyin ushbu sistema Moskalkov-Utebaevning chekli elementlar usuli asosida qurilgan to‘rtinchi tartibli aniqlikga ega ayirmali sxemasi bilan yechiladi. Aniqlik baholarini olish uchun aprior baholarni olishning maxsus metodikasi qo‘llaniladi, chunki Teylor formulasiga asoslangan ayirmali sxemalarining yaqinlashuvini tadqiq qilishda klassik yondashuv izlanayotgan yechimning silliqligiga yuqori talablarni qo‘yadi. Bobning kirish qismida to‘rtinchi tartibli Sobolev tipidagi tenglamalar haqida qisqacha ma’lumot berilgan.

Birinchi paragrafda magnitlanmagan plazmadagi ion-akustik to‘lqinlar tenglamasi

$$\frac{\partial^2}{\partial t^2}(\Delta_3 u - \theta u) + \Delta_3 u = f(x,t), \quad (x,t) \in Q_T \tag{1}$$

uchun quyidagi chegaraviy va boshlang‘ish

$$u = 0, \ \ x \in \Gamma = \partial\Omega; \quad t \in (0,T], \tag{2}$$

$$u(x,0) = u_0(x), \ \ \frac{\partial u}{\partial t}(x,0) = u_1(x), \ \ x \in \overline{\Omega} \tag{3}$$

shartlari bilan berilgan masala uchun chekli elementlar usuli sxemasining aniqligi bo‘yicha tadqiqotlar olib borilgan.

Bu yerga $\Delta_3 = \partial^2 / \partial x_1^2 + \partial^2 / \partial x_2^2 + \partial^2 / \partial x_3^2$ - uch o‘lchamli Laplas operatori, $\overline{\Omega} = \Omega \cup \Gamma$, $\Omega = \{0 < x_k < l_k, k = 1,2,3\}$, $Q_T = \{(x,t) : x \in \Omega, \ t \in (0,T]\}$, $f(x,t)$- ma’lum funktsiya.

Dissertatsiya davomida Δ operatorning spektri $\theta \notin \lambda(\Delta)$ deb hisoblaymiz. Bu yerda θ musbat son.

(1)-(3) masalaning fazoviy o‘zgaruvchilarini chekli elementlar usuli asosida diskretizatsiyalaymiz va quyidagi oddiy differensial tenglamalar sistemasi uchun Koshi masalasiga ega bo‘lamiz:

$$D\ddot{u}_h(t)+Au_h(t)=f_h(t),\quad u_h(0)=u_{0,h},\quad \dot{u}_h(0)=u_{1,h}\,. \tag{4}$$

Bu yerda, D, A- H_h dan H_h ga harakatlanuvchi t ga bog‘lik bo‘lmagan doimiy operatorlar, H_h-diskret gilbert fazosi, $\ddot{u}=d^2u/dt^2$, $\dot{u}=du/dt$. Ular - $\mathrm{D}=\left(a_1(\varphi_l,\varphi_m)\right)_{l,m=1}^{M}$ va $\mathrm{A}=\left(a_2(\varphi_l,\varphi_m)\right)_{l,m=1}^{M}$ qattiqlik matritsalariga mos keladi. Bu yerda, $u_{k,h}=P_hu_k(x),\ k=0,1,\ P_h$ - proyeksiya operatori $P_hH=H_h$.

(4) masalani chekli elementlar usulining uch parametrli ayirmali sxemasi bilan approksimatsiyalaymiz (M.M. Moskalkov - D. Utebaev sxemalari):

$$D_\gamma\dot{y}_t+Ay^{(0.5)}=\varphi_1,\ D_\alpha y_t-D_\beta\dot{y}^{(0.5)}=\varphi_2,\quad y^0=u_0,\ \dot{y}^0=u_1\,. \tag{5}$$

Bu yerda $y=y^n=y(t_n),\ \hat{y}=y^{n+1},\ \dot{y}=\dot{y}^n=dy(t_n)/dt,\quad n=0,1,...,$ $y^n,\ \dot{y}^n\in H_h,\ D_m=D-m\tau^2A,\ m=\alpha,\beta,\gamma,\ \varphi_k=\int_0^1 f(t_n+\tau\xi)\vartheta_k(\xi)d\xi,\ k=1,2$, $y_t=(\hat{y}-y)/\tau,\ \dot{y}_t=(\hat{\dot{y}}-\dot{y})/\tau,\ y^{(0.5)}=(\hat{y}+y)/2,\quad \dot{y}^{(0.5)}=(\hat{\dot{y}}+\dot{y})/2,\ \xi=(t-t_n)/\tau$, $\vartheta_1(\xi)=1,\quad \vartheta_2(\xi)=s_1\vartheta_2^{(1)}(\xi)+s_2\vartheta_2^{(2)}(\xi),\quad \vartheta_2^{(2)}(\xi)=\tau\left(\xi^3-3\xi^2/2+\xi/2\right)$, $\vartheta_2^{(1)}(\xi)=\tau\left(\xi-0.5\right),\ s_1=180\beta-40\alpha,\ s_2=1680\beta-280\alpha,\ \alpha,\beta,\gamma$ - ba’zi doimiy sonlar.

(5)-sxemaning parametrlari α,β,γ quyidagi to‘rtinchi tartibli approksimatsiya shartiga bo‘ysunadi:

$$\alpha+\gamma=\beta+1/6\,. \tag{6}$$

Agar (6) ga qo‘shimcha ravishda $\beta-6\alpha\gamma+1/40=0$ shart bajarilsa, u holda (5) sxema oltinchi tartibli aniqlikga ega bo‘ladi.

Umumlashgan yechimlar sinfida (5)-ayirmali sxemasining aniqligi haqidagi quyidagi teorema isbotlangan.

Teorema 1. Operatorlar $D^*=D>0$, $A^*=A>0$ va $AD=DA$ bo‘lsin. Bundan tashqari, sxemaning to‘rtinchi tartibli approksimatsiyaga ega bo‘lish sharti (6) o‘rinli bo‘lsin. U holda, agar

$$D-m\tau^2A\ge\varepsilon D,\ 0<\varepsilon<1,\ m=\max\{\alpha,\beta,\gamma\} \tag{7}$$

turg‘unlik sharti o‘rinli bo‘lsa, (1)-(3) masalani approksimatsiyalovchi (5) ayirmali sxemaning yechimi uchun

$$u(x,t)\in L_2([0,T];\ W_2^{k+1}(\Omega)\cap\overset{\circ}{W}{}_2^1(\Omega)),$$

$$\frac{\partial u}{\partial t}(x,t)\in C([0,T];\ W_2^{k+1}(\Omega)\cap\overset{\circ}{W}{}_2^1(\Omega)),\ \frac{\partial^4u}{\partial t^4}(x,t)\in C\left\{[0,T];\ W_2^2(\Omega)\right\}$$

shartlar bajarilganda, quyidagi

$$\|u(x,t)-y(x,t)\|_1+\left\|\int_0^s[u(x,t')-y(x,t')]dt'\right\|_1\le$$

$$\le M\left\{\tau^3\left(\max_t\left\|\frac{\partial^4 u}{\partial t^4}(x,t)\right\|_2+\sqrt{\int_0^t\left\|\frac{\partial^4 u}{\partial t^4}(x,t')\right\|_2^2 dt'}\right)+h^k\left(\max_t\left\|\frac{\partial u}{\partial t}(x,t)\right\|_{k+1}+\right.\right.$$

$$\left.\left.+\sqrt{\int_0^t\left\|\frac{\partial u}{\partial t}(x,t')\right\|_{k+1}^2 dt'}+\sqrt{\int_0^t\|u(x,t')\|_{k+1}^2 dt'}\right)\right\} \quad \forall t\in[0,T],\ M=M(C_1,C_2,T)>0$$

aniqlik bahosi o‘rinli bo‘ladi.

Shunga o‘xshash tadqiqotlar magnitlardagi spin to‘lqinlarining quyidagi

$$(\partial^2/\partial t^2+\omega_1^2)\Delta_3 u(x,t)+\omega_2^2\Delta_2 u(x,t)=f(x,t) \tag{8}$$

tenglamasi uchun (2), (3) boshlang‘ich-chegaraviy masala **ikkinchi paragrafda** olib borilgan, bu yerda $\Delta_2=\partial^2/\partial x_1^2+\partial^2/\partial x_2^2$ - ikki o‘lchamli Laplas operatori, $\omega_1=\gamma(H_0+\beta M_0)$, $\omega_2=\gamma\sqrt{4\pi M_0(H_0+\beta M_0)}$, $\gamma=g|e|/(2mc)$, $g-$ ferromagnitning gidromagnit nisbati, $\beta=K/M_0^2$, $M_0=m_0 e_3$–«yengil o‘q» (e_3) tipidagi ferromagnetik, $K-const.$, $H_0=H_0 e_3$–tashqi maydon, c–yorug‘lik tezligi, m–vazn, e–elektron zaryadining absolyut qiymati.

Approksimatsiya tartibi va turg‘unlik shartlari olingan. Ular asosida ko‘rib chiqilayotgan ayirmali sxemaning yaqinlashuvi va aniqligi haqidagi quyidagi teorema isbotlangan.

Teorema 2. Faraz qilaylik, $D^*=D>0,\ A^*=A>0$ bo‘lsin va (6), (7) shartlar bajarilsin. U holda (5) ayirmali sxemaning yechimi (2), (3) boshlang‘ich va chegaraviy shartlariga ega (8) tenglamaning yechimiga yaqinlashadi va ushbu yechim uchun quyidagi aniqlik bahosi o‘rinli bo‘ladi:

$$\|y(t)-u(t)\|_1\le M(|h|^\sigma+\tau^4),\ u(t),\ y(t)\in H_h,\ |h|^\sigma=h_1^\sigma+h_2^\sigma+h_3^\sigma.$$

Fazo bo‘yicha har bir chekli elementda uchinchi darajali polinom tanlansa h fazoviy qadam bo‘yicha uchinchi tartibli aniqlikga ega bo‘lamiz, ya’ni $\sigma=3$.

Uchinchi paragraf yengil tekislik tipidagi magnitlarda spin to‘lqinlarning

$$(\partial^2/\partial t^2+\omega_3^2)\Delta_3 u(x,t)+\omega_4^2 u_{x_2x_2}(x,t)+\omega_5^2 u_{x_3x_3}(x,t)=f(x,t),\ (x,t)\in Q_T \tag{9}$$

tenglamasi uchun (2), (3) boshlang‘ich-chegaraviy masala chekli elementlar usuli sxemasining aniqligini tadqiq qilishga bag‘ishlangan. Bu yerda $\omega_3=\gamma\sqrt{H_0(H_0+|\beta|M_0)}$, $\omega_4=\gamma\sqrt{4\pi(H_0+|\beta|M_0)M_0}$, $\omega_5=\gamma\sqrt{4\pi H_0 M_0}$, $u_{x_\alpha x_\alpha}=\partial^2 u/\partial x_\alpha^2,\ \ \alpha=2,3.$

(9), (2), (3) chegaraviy masalaning fazoviy o‘zgaruvchilari birinchi navbatda chekli elementlar usulida approksimatsiyalanadi, natijada olingan katta o‘lchamdagi oddiy differensial tenglamalar sistemasi esa quyidagi

$$\tilde{D}_\gamma \dot{w}_t+\tilde{A}w^{(0.5)}=\tilde{\varphi}_1,\ \tilde{D}_\alpha w_t-\tilde{D}_\beta \dot{w}^{(0.5)}=\tilde{\varphi}_2, \tag{10}$$

chekli elementlar usulining takomillashtirilgan sxemasi bilan approksimatsiyalanadi. Bu yerda $\tilde{\varphi}_1=D^{-1/2}\varphi_1$, $\tilde{\varphi}_2=D^{-1/2}\varphi_2$, $\tilde{D}_\omega=\tilde{D}-\omega\tau^2\tilde{A}$,

$\tilde{D} = E$, $\tilde{A} = D^{-1/2} A D^{-1/2}$, $w = D^{1/2} y$, $\dot{w} = D^{1/2} \dot{y}$, $\omega = \alpha, \beta, \gamma$, $\tilde{D} = \tilde{D}^* > 0$, $\tilde{A} = \tilde{A}^* > 0$ va $\tilde{D}\,\tilde{A} = \tilde{A}\tilde{D}$.

Quyidagi yaqinlashish teoremasi isbotlangan.

Teorema 3. Faraz qilaylik, $D^* = D > 0,\ A^* = A > 0$ bo‘lsin va (6), (7) shartlar bajarilsin. U holda (10) sxemaning $w(t)$ yechimi (2), (3) boshlang‘ich va chegaraviy shartlariga ega (9) tenglamaning yechimiga yaqinlashadi va quyidagi aniqlik bahosi o‘rinli bo‘ladi:

$$\left\| u(t) - y(t) \right\|_1 \le M\left(|h|^\sigma + \tau^4 \right),\ |h|^\sigma = h_1^\sigma + h_2^\sigma + h_3^\sigma .$$

Fazo bo‘yicha har bir chekli elementda uchinchi darajali polinom tanlansa h fazoviy qadam bo‘yicha uchinchi tartibli aniqlikga ega bo‘lamiz, ya’ni $\sigma = 3$.

To‘rtinchi paragrafda ikki haroratli plazma tenglamasi uchun chekli elementlar usuli sxemalari o‘rganilgan, ya’ni past chastotali elektron magnit-akustik to‘lqinlarni tavsiflovchi tenglama

$$\frac{\partial^2}{\partial t^2}\Delta_2\Phi_e + \frac{u_{Ae}^2}{c^2}\frac{\partial^2}{\partial t^2}\left(\Delta_3\Phi_e - \frac{1}{r_{De}^2}\Phi_e \right) + \omega_{Be}^2 \frac{\partial^2 \Phi_e}{\partial x_3^2} = \frac{u_{Ae}^2}{c^2} divF(x,t) \qquad (11)$$

va past chastotali ion magnit-akustik to‘lqinlarni tavsiflovchi tenglama

$$\frac{\partial^2}{\partial t^2}\Delta_2\Phi_i + \frac{u_{Ai}^2}{c^2}\frac{\partial^2}{\partial t^2}\left(\Delta_3\Phi_i - \frac{1}{r_{Di}^2}\Phi_i \right) + \omega_{Bi}^2 \frac{\partial^2 \Phi_i}{\partial x_3^2} = \frac{u_{Ai}^2}{c^2} divF(x,t) \qquad (12)$$

tadqiq qilingan. Bu yerda $\Phi_e(x,t)$–elektronlarning, $\Phi_i(x,t)$–ionlarning elektr maydonlari, $r_{D_e}^2 = T_e^2 / (4\pi e^2 n_0)$ – elektron Debay radiusi kvadrati, $r_{D_i}^2 = T_i^2 / (4\pi e^2 n_0)$ – ionli Debay radiusi kvadrati, $u_{A_e} = B_0 / (4\pi n_0 m)$ – elektronlar va $u_{A_i} = B_0 / (4\pi n_0 M)$ – ionlar uchun Alfven tezliklari, $\omega_{B_e} = eB_0 / (mc)$, $\omega_{B_i} = ZeB_0 / (Mc)$ – elektron va ionlarning larmor chastotalari (m va M ularning massasi), c–vakuumdagi yorug‘lik tezligi, Z–ion va elektron zaryadlarining nisbati, B_0–tashqi doimiy magnit maydon, n_0 – bezovtalanmagan zarracha zichligi, e – elektron zaryadining mutlaq qiymati, T_e – elektron harorati, T_i – ion harorati.

(11), (12) tenglamalarni quyidagi umumiy ko‘rinishda yozamiz:

$$\frac{\partial^2}{\partial t^2}(\Delta_3 u - \rho^2 u) + \omega^2 \frac{\partial^2}{\partial t^2}(\Delta_2 u) + \theta^2 \frac{\partial^2 u}{\partial x_3^2} = f(x,t),\ (x,t) \in Q_T, \qquad (13)$$

bu yerda, $\rho^2,\ \omega^2,\ \theta^2 - const > 0$, Debay radiusi yoki Alfven tezligiga bog‘liq, ω^2 – Langmyur chastotasi, $f(x,t)$ mos ravishda (11), (12) ning o‘ng tomonlari.

(13) tenglamani quyidagi boshlang‘ich va chegaraviy shartlar bilan to‘liqtiramiz:

$$u(x,t)\big|_{\partial\Omega} = \frac{\partial u}{\partial n}\bigg|_{\partial\Omega} = 0\ \ \forall t \in [0,t],\ u(x,0) = u_0(x),\ \frac{\partial u}{\partial t}(x,0) = u_1(x). \qquad (14)$$

(13), (14) masalani fazo o‘zgaruvchilari bo‘yicha chekli elementlar usuli asosida approksimatsiyalaymiz va olingan (4) kurinishidagi oddiy differensial tenglamalar sistemasi uchun Koshi masalasini (10) sxema bilan approksimatsiyalaymiz.

(13), (14) masalaning umumlashgan yechimga (10) ayirmali sxemaning yechimining yaqinlashuvi haqidagi quyidagi teorema isbotlangan.

Teorema 4. Faraz qilaylik, $D^* = D > 0,\ A^* = A > 0$ bo‘lsin va (6), (7) shartlar bajarilsin. U holda (13), (14) masalani approksimatsiyalovchi (10) sxema yechimi uchun $u(x,t),\ \dfrac{\partial u}{\partial t}(x,t) \in C\left\{[0,T];\ W_2^{k+1}(\Omega)\right\},\quad \dfrac{\partial^4 u}{\partial t^4}(x,t) \in C\left\{[0,T];\ W_2^2(\Omega)\right\}$ shartlarda, quyidagi

$$\|u(x,t) - y(x,t)\|_1 \le M\left\{h^k\left(\max_t\left\|\frac{\partial u}{\partial t}(x,t)\right\|_{k+1} + \sqrt{\int_0^t \|u(x,t')\|_{k+1}^2 dt'}\right) + \right.$$

$$\left. + \tau^3\sqrt{\int_0^t \left\|\frac{\partial^4 u}{\partial t^4}(x,t')\right\|_2^2 dt'}\right\},\ \forall t \in [0,T],\ M = M(T,\rho,\theta,\omega_0) > 0$$

aniqlik bahosi o‘rinli bo‘ladi.

Fazo bo‘yicha har bir chekli elementda uchinchi darajali polinom tanlansa h fazoviy qadam va τ vaqt qadami bo‘yicha uchinchi tartibli aniqlikga ega bo‘lamiz.

Beshinchi paragrafda boshlang‘ich va chegaraviy shartlari bilan berilgan ikki haroratli plazma tenglamasi uchun sonli natijalar test misolida berildi.

“To‘rtinchi tartibli oddiy differensial tenglamalar sistemasi uchun yuqori aniqlikdagi sxemalar” deb nomlangan dissertatsiyasining **ikkinchi bobi** to‘rtinchi tartibli oddiy differensial tenglamalar sistemasi uchun Koshi masalasini sonli yechish uchun chekli elementlar usuli asosida ko‘p parametrli ayirma sxemalarni qurishga va tadqiq qilishga bag‘ishlangan. Vaqt o‘zgaruvchisiga nisbatan maxsus diskretizatsiya asosida to‘rtinchi tartibli aniqlikga ega ayirmali sxemalarining yangi ko‘p parametrli oilalari qurilgan. Ayirmali sxemada parametrlarning mavjudligi ayirmali sxemaning turg‘unligi, aniqligi va tejamkorligini regulyarizatsiyalash imkonini beradi. Ayirmali sxemalarning yechimi uchun aprior baholar olingan va u asosida yaqinlashish teoremalari isbotlangan.

Birinchi paragrafda quyidagi Koshi masalasini ko‘rib chiqamiz:

$$D\ddot{\ddot{u}} + B\ddot{u} + Au = f,\ t_0 < t \le T, \tag{15}$$

$$u(t_0) = u_0,\ \dot{u}(t_0) = u_1,\ \ddot{u}(t_0) = u_2,\ \dddot{u}(t_0) = u_3,\ m = \overline{0,3}. \tag{16}$$

Bu yerda $u = u(t)$ izlanayotgan funksiya, D, B va A H dan H ga harakatlanuvchi chiziqli, t dan mustaqil doimiy operatorlar, $D^* = D > 0$,

$B^* = B \ge 0$, $A^* = A > 0$; $\forall t \ge 0$, $u,\ f = f(t) \in H$ –Gilbert fazosi, $\dot{u} = du/dt$, $\ddot{u} = d^2u/dt^2$, $\dddot{u} = d^3u/dt^3$.

(15) tenglamaning umumlashgan yechimini ixtiyoriy $\vartheta(t) \in C^2(t_н, t_к)$ funktsiya uchun

$$\int_{t_н}^{t_к} (D\ddot{u}\ddot{\vartheta} - B\dot{u}\dot{\vartheta} + Au\vartheta)dt + \left[D\dddot{u}\vartheta - D\ddot{u}\dot{\vartheta} + B\dot{u}\vartheta \right]\Big|_{t_н}^{t_к} = \int_{t_н}^{t_к} (f, \vartheta)dt$$

integral tenglikni qanoatlantiruvchi uzluksiz $u(t) \in C^3[0,T]$ funksiya sifatida aniqlaymiz, bu yerda $0 \le t_н \le t_к \le T$, $\dot{u} = du/dt$, $\dddot{u} = d^3u/dt^3$.

$[0,T]$ oraliqda teng o‘lchovli $\overline{\omega}_\tau = \{t_n = n\tau,\ n = 0,1,...;\ \tau > 0\}$ to‘rini kiritamiz. (t_n, t_{n+1}) oraliqlarning har birida (15), (16) masalaning taxminiy yechimini

$$y(t) = \varphi_{00}^n(t)y^n + \varphi_{01}^n(t)y^{n+1} + \varphi_{10}^n(t)\dot{y}^n + \varphi_{11}^n(t)\dot{y}^{n+1} + \varphi_{20}^n(t)\ddot{y}^n + \varphi_{21}^n(t)\ddot{y}^{n+1}$$

beshinchi darajali ko‘phad ko‘rinishida izlaymiz. Bu yerda $y^n = y(t_n)$,

$$y^{n+1} = y(t_{n+1}),\ \dot{y}^n = dy(t_n)/dt,\ \dot{y}^{n+1} = dy(t_{n+1})/dt,\ \ddot{y}^n = d^2y(t_n)/dt^2,$$

$$\ddot{y}^{n+1} = d^2y(t_{n+1})/dt^2,\ \varphi_{00}^n(t) = -6\xi^5 + 15\xi^4 + 6\xi^5 - 10\xi^3 + 1,$$

$$\varphi_{01}^n(t) = 6\xi^5 - 15\xi^4 + 10\xi^3,\ \varphi_{10}^n(t) = \tau(-3\xi^5 + 8\xi^4 - 6\xi^3 + \xi),$$

$$\varphi_{11}^n(t) = \tau(-3\xi^5 + 7\xi^4 - 4\xi^3),\ \varphi_{21}^n(t) = \tau(\xi^5/2 - \xi^4 + \xi^3/2),$$

$$\varphi_{20}^n(t) = \tau^2(-\xi^5/2 + 3\xi^4/2 - 3\xi^3/2 + \xi^2/2),\ \ \xi = (t - t_n)/\tau.$$

Ushbu ko‘phad asosida turli xil yangi ayirmali sxemalar qurildi.

Ikkinchi paragrafda birinchi paragraf natijalariga ko‘ra ko‘p parametrli quyidagi ayirmali sxemalar qurildi:

$$\begin{aligned} &D_\eta \dot{y}_t - \eta\tau^2 Ay^{(0.5)} - D\ddot{y}^{(0.5)} = \varphi_1, \\ &D_\gamma y_t - D_\gamma \dot{y}^{(0.5)} + \eta\tau^2 D\ddot{y}_t = \varphi_2, \\ &D_\alpha \dot{y}_t - D_\beta \ddot{y}^{(0.5)} - \eta\tau^2 Ay^{(0.5)} = \varphi_3, \end{aligned} \tag{17}$$

bu yerda

$$D_m = D - m\tau^2 B,\ m = \alpha,\ \beta,\ \gamma,\ \eta,\ \ddot{y}_t = (\hat{\ddot{y}} - \ddot{y})/\tau,\ \ddot{y}^{(0.5)} = (\hat{\ddot{y}} - \ddot{y})/2,$$

$$\varphi_1 = -\frac{\tau}{6}\int_{t_n}^{t_{n+1}} f(t)dt = -\frac{\tau^2}{6}\int_0^1 f(t_n + \tau\xi)d\xi,$$

$$\varphi_2 = -\frac{7\tau^2}{60}\int_0^1 f(t_n + \tau\xi)[s_1\vartheta_2^{(1)}(\xi) + s_2\vartheta_2^{(5)}(\xi)]d\xi,$$

$$\varphi_3 = -10\int_0^1 f(t_n + \tau\xi)[s_3\vartheta_3^{(2)} + s_4\vartheta_3^{(4)}]d\xi,$$

$$s_1 = 3 - 120\gamma, \qquad s_2 = 14 - 840\gamma, \qquad s_3 = 140\alpha + 15, \qquad s_4 = 1400\alpha + 140,$$

$\vartheta_2^{(1)} = \tau\left(\xi - 1/2\right)$, $\quad \vartheta_2^{(5)} = \tau\left(3\xi^5 + 15\xi^4/2 - 5\xi^3 + \xi/2\right)$, $\quad \vartheta_3^{(2)} = \tau^2\xi(\xi-1)/2$,

$\vartheta_3^{(4)} = \tau^2\xi^2(\xi-1)^2/4$, α, β, γ, η - ba'zi doimiy sonlar.

(17)-sxema uchun boshlang'ish shartlar quyidagicha beriladi:

$$\dot{y}(0) = u_{0,1} + \frac{\tau}{2}\left(E - \frac{\tau^2}{12}D^{-1}B\right)u_{0,2} + \frac{\tau^2}{6}u_{0,3} + \frac{\tau^3}{24}D^{-1}[f(0) - Au_{0,0}],$$

$$\ddot{y}(0) = u_{0,2} + \tau u_{0,3} + \frac{\tau^2}{2}D^{-1}[f(0) - Bu_{0,2} - Au_{0,0}] + \tag{18}$$

$$+\frac{\tau^3}{4}D^{-1}[\dot{f}(0) - B\dot{u}_{0,2} - A\dot{u}_{0,0}].$$

Agarda

$$\eta = 1/12, \ \alpha - \beta = 1/12 \tag{19}$$

shartlar bajarilsa, u holda approksimatsiya xatoligi $\psi_1 = O(\tau^4)$, $\psi_2 = O(\tau^4)$, $\psi_3 = O(\tau^4)$ bo'lishi isbotlangan.

